

**Nosirjonov Muhammadamin**

I bosqich talabasi

Fojia to‘g‘risida ro‘y-rost gapirgandan ko‘ra, baxt haqida safsata sotmoq osonroqdir. Chunki so‘zlovchining ham, tinglovchining ham fikrlari quvnoq ohanglarga mos keladi. Buning boisi nimada? Sir emaski, baxt – mavhum tushuncha. Fojia esa, baxtning sarobga aylangan moddiy ko‘rinishidir. Inson hamisha mavhumlikka intiladi, undan aniqlik qidiradi; haqiqatni chamanzor ichidan topmoqchi bo‘ladi. Afsuski, baxt deb atalmish bu chamanzorning bir chekkasida hamisha yolg‘on gullaydi. Fojia so‘qmog‘idan esa, baribir, achchiq haqiqat karvoni qo‘ng‘iroq chalib o‘taveradi. Baxtdan kuylayotgan oqin gunohkor zamindan nechog‘lik uzoqlashsa, fojiadan naql boshlagan olim zamin – tarix atalmish shafqatsiz haqiqatga shu qadar yaqinlashib kelaveradi. Filhaqiqat, tarix – jafokash xalqimiz boshidan kechirgan achchiq sho‘rishlar, moziy qatlaridagi buyuk ajdodlarimiz fojiaviy taqdirining bayoni hamdir. Bugundan bir asr narida yuz bergen yurtimiz tarixi silsilasida elimizning asl farzandlari, buyuk taraqqiyarvar bobolarimiz – jadidchilik harakatlari namoyandalarining faoliyati o‘zining ham ibratli, ham fojiaviy jihatlari bilan xalqimiz o‘tmishi sahifalarida alohida tadqiq etilishga munosibdir. Zero, buyuklar ta’kidlab o‘tganidek, tarix – eng yomon o‘quvchilarga ega eng haqgo‘y va eng yaxshi ustozdir.

Maktab davrida olgan bilimlarimiz orqali aytish mumkinki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatlariga ilk poydevor qo‘yilgan edi. O‘scha davrning ilg‘or taraqqiyarvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyorilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani, xalqning ijtimoiy va huquqiy ong doirasida mutlaqo zillat, ma’naviy tanazzul botqog‘iga botib ketganini his etgan holda, jamiyatni isloq qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar.

Avvalo, yurtimizda ro‘y bergen mazkur iqtisodiy va ma’naviy tanazzul qay tariqa yuz bergani haqida qisqacha aytib o‘tsak. Ma’lumki, bu davrda podsho Rossiyasining yurtimizda mustahkam o‘rnashib olib, o‘z siyosiy agentlari yordamida mahalliy hukmdorlar vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi hamda yashashi uchun sharoit yaratgani, Turonzaminda o‘zlarining turli kompaniyalari faoliyatlarini mustahkamlab olganini kuzatishimiz mumkin. Ayni chog‘da, mahalliy aholining talab va ehtiyojlari deyarli nazarga olinmay, diniy e’tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik hollari kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy- siyosiyadolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, natijasida, xalq asriy qoloqlikka mahkum etildi. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyarvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyorilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish — siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Jadirlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va zirotatchilik sohalarining zamona viy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Bu kurash tariximizdagi boshqa kurashlardan mutlaqo farqli edi: jadidlar istiqlolga erishishni qurolli qo‘zg‘olon yoxud isyonlar orqali emas, balki ma’rifat orqali amalga oshirishni rejalashtirgan edilar. Ularning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul mакtablari tarmog‘ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar hamda teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish va hokazo. Bu xayrlı ishlar esa, jadid ziyorolarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin edi.

Aytish mumkinki, bu davrda xalqimizning iqtisodiy-madaniy darajasi o‘ta qoloq, johillik butun jamiyatni, kishilar ong-u shuurini butunlay band qilib olgan, millat “zillat botqog‘iga botib, tanasidan qon oldirgan bemor”<sup>75</sup> holiga tushgan edi.

Turkistonni ana shunday qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish uchun, xalqqa ma’rifat tarqatish, mamlakatda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, ijtimoiy-siyosiy hayot tizimida shariatni isloh qilish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik mustaqil demokratik respublikani o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyuta va milliy armiyani joriy etishni taqozo qilar edi.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hurfikrli, taraqqiyat parvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Samarqandda – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy (Ajziy), Toshkentda – Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Tosho‘latbek Norbo‘tabekov, Buxoroda esa, Abdurauf Fitrat, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov; Farg‘ona vodiysida – Obid Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov hamda Xorazmda – Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov kabi millat fidoyilarining ma’rifiy faoliyati haqida ko‘plab tadqiqiy ishlarni o‘rganishimiz, ularning o‘rnak olishga arzigulik ishlarini bugungi avlodga yetkazish bizning endilikdagi eng asosiy burch va mas’uliyatlarimizdan bo‘lmog‘i zarur. Zero, millat fidoyilarining ibratli hayot yo‘li haqidagi ma’lumotlat, tadqiqotlar birmuncha ko‘plab sonlarni tashkil etsa-da, ta’lim sohasiga yetarli darajada uzatilmaganini afsus bilan aytishga majburniz.

Men umumiyl o‘rta ta’limni tugallaganimga ko‘p bo‘lgani yo‘q – endigina bir yil to‘lmoqda. Demoqchimanki, jadidchilik harakatlari namoyandalarining hayoti va faoliyati borasida to‘laqonli bilimlarga ega bo‘lish yangi davr kishisini tarbiyalashda,

<sup>75</sup> Hamza Hakimzoda Niyoziy “Yig‘la, Turkiston”.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

uning vatan ravnaqi yo‘lida munosib el farzandi bo‘lishida muhim dasturulamal bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Zero, ajdodlar jasorati avlodlar uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib kelgan. Biz esa, yuqorida sanab o‘tganlarimiz – buyuk jadid bobolarimizning avlodlarimiz. Bugun esa, ularning har biri, nazdimizda, bizni kuzatmoqda: o‘ylab ko‘raylik, ularga munosib vorislarmiz deb, dadil ayta olamizmi? Yuqoridagi og‘riqli savol bizga til va adabiyot o‘qituvchimiz tomonidan o‘tgan yili – maktab davrimda berilgan edi. Men ana shu savolga javob berish, jadid namoyandalari hayoti haqida mukammal bilimga ega bo‘lish maqsadida, maktab kutubxonasiagi bu boradagi tarixiy manbalar bilan asta-sekin tanisha boshladim. To‘g‘ri, bunga qadar Abdulla Avloniy, Qodiriy, Cho‘lpon asarlari bilan qisman tanishgan bo‘lsam-da, ularning hurriyat yo‘lidagi qarashlarini to‘laqonli his qilishim uchun bu bilimlar u qadar yetarli emas edi. Masalan, “Toshkent jadidlarining otasi” deya e’tirof etilgan Munavvar qori Abdurshidxonovning sharaflı va ayni chog`da, fojiaviy hayoti haqida uztozlarimiz so‘zlab bergen voqealar borasidagi tarixiy yozmishlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, o‘qishni istasam-da, tarix darsliklarimizda bunday arxiv ma’lumotlarini hali uchratmaganman. Chunonchi, sinf rahbarimiz, galdegı murabbiylik soatlardan birida, aynan shu inson haqida, qimmatli fikrlarni bayon etar ekan, “shundoq diniy va dunyoviy bilimlari mukammal insonning sho‘ro rahbarlari tomonidan mutlaqo ishsiz qoldirilishi, oilasini boqish uchun uy sharoitida, hatto paypoq to‘qib tirikchilik qilishga-da majbur bo‘lgani” haqidagi ma’lumotlarni tinglagan chog‘imiz, ko‘philik (ayniqsa, qiz bolalar!) ko‘zyoshlarini tiya olmagani, biz, yigitlar esa, chuqur iztiroblar ostida bosh egib, sukutga botib qolganimizga guvohman. Sinf xonamizdag‘i ushbu benazir insonning portreti, bizga boqib turgan teran ko‘zlar, jur‘at va shijoatga to‘liq nigohlar qalbimizga muhrlangani rost. Ammo, afsuski, bunday mavzudagi darslar kam o‘tildi. Chunki, adabiyot uchun dars soatlari cheklangan, millat fidoyilarini bilan to‘laqonli tanishishning imkonini kam edi. Bugun Munavvar qori Abdurashidxonovning ijtimoiy, iqtisodiy hamda pedagogik qarashlari haqida birmuncha bilimga ega ekanligimni ayta olaman. Ayniqsa, bu atoqli allomaning ko‘plab maqolalarini o‘qir ekanmiz, undagi ijtimoiy- ta’limiy muammolarning bugunga qadar eskirmagani, ularning bugunda ham dolzarb ahamiyat kasb etishini anglaymiz. Xalqimiz ongidagi bugungi qusurlar: ona tilimizga, milliy ta’lim tizimi amaliy jarayonlaridagi salbiy holatlar, shuningdek, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotga noxush manzaralar: to‘ylardagi dabdababozliklar, zamondoshlarimizning kitobxonlik, badiiy mutolaadan uzoqlashib borayotgani kabi g‘ofiliy holatlarni kuzatar ekanmiz, xayolan allomaning quyidagi o‘gitlari yodimizga tushadi: “Ko‘zimiz g‘aflat uyqusidin ochib, atrofimizg‘a nazar solmakimiz lozimdir. Har millat o‘z saodat hol va istiqbolini muhofazatig‘a birinchi vosita ilm o‘lmakig‘a qanoat hosil qilib ilm va maorifg‘a ortiq darajada ko‘shish qilgan bu zamonda bizlar bu g‘aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavflik o‘lub hamma olamga masxara va kulgu o‘lmog‘imizda (ta’kidlar bizniki – M.N.) hech shubha yo‘qdir. Balki, bu jaholat zulmatida saodati uxraviyadin ham mahrum qolmoq xavflidir. Bu jaholat natijasidurki, o‘zimiz yerlik musulmonlardan o‘ldig‘imiz holda musofir rus va yahudiylar eshidiga mardikor va xizmatchi o‘lduk. Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurban qilmoqqa

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalarg'a sarf etmkadadurlar..."<sup>76</sup>

Eli uchun kuyib-yongan, bag'ri qonidan ma'rifat mayog'ini ko'targan Munavvar qori Abdurashidxonov millatimiz qalbiga ma'rifat va hurriyat, erk va mustaqillik urug'ini socha olgan, yurt tarixining eng dahshatli yillarda ham xalqimiz uchun najot yo'lini ko'rsatgan, bu ulug' va muqaddas manzilni munavvar qilgan yo'lchi yulduz hamdir.

Shu o'rinda rus yozuvchishi Aleksey Maksimovich Gorkiyning "Izergil kampir" asaridan o'rin olgan ibratli hikoyat – Dankoning alangali yuragi haqidagi afsona yodimizga tushsa ajab emas. Bugun Munavvar qori Abdurashidxonov haqida mulohazalarimni oq qog'ozga tushirar ekanman, Gorkiy qalamiga mansub ushbu ramziy hikoya beixtiyor yodimga tushdi. Tamomiy, umrbod zulmatga mahkum etilgan qabilasini nurli hayotga olib chiqishda ko'ksini yorib, yoniq yuragini mash'ala monand yuqoriga ko'targan yo'lchi yulduz – Dankoning real hayotdagi asliy qiyofasi bizning jadidlarimiz emasmi? Millatimiz o'tmishidagi eng qora kunlarda hayotning zulmat kunlarini najot sari boshlagan yo'lboschi - Munavvar qori Abdurashidxonovning o'sha biz bilgan mashhur badiiy obraz – Dankadan qanday farqi bor? Ushbu benazir inson ana shu fidoyi obraz - Dankoning hayotdagi aksi emasmi? Ha, ushbu iymoni basalomat inson tariximizning eng murakkab, eng og'ir davrlarida jasoratlari, ayni damda eng buyuk siymolaridan biridir. Butun vujudi- e'tiqodi bilan millatimizni ma'naviy isloh sari ruhlantirgan bobomizning jamiyat taraqqiyotidagi birlamchi kuch – yoshlari kamoloti, buyuk kelajak qurish, istiqlolga qay darajada tashna ekanligi uning kuyunchaklik bilan aytgan quyidagi yozmishlarida to'la-to'kis o'zini namoyon etadi: "... o'z holimiz va o'z tariximizga boqsak, bir vaqtlar Ovrupo vahshiy ekan, biz madaniy edik, Ovrupo poposlari «Osiyo osmonig'a jisman uchdimi, ruhan uchdimi?» kabi diniy nizolar bilan bir- birlarini bo'g'ushar ekanlar, usmonli turklari Istanbulni fath etmoq, Turkiston turklari madrasa va rasadxonalar bino qilmoq kabi madaniy ishlar bilan mashg'ul edilar.

So'ngralari Ovrupo xalqi maorif va madaniyat yo'lida ishladi, bu holg'o yetishdi – biz tushdik, uxladic, bu holg'a yetushduk (ta'kidlar bizniki – M.N.). Bugungacha Ovrupo xalqi osmong'a uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jo'g'rofiya va tabiyot o'qitish, o'qitmaslik ixtiloflari... davom etadi"<sup>77</sup>.

Ushbu soddagina jumlalarda naqadar donishona mulohazalar mujassam! Bu jumlalar oz bo'lsa-da, yurt kelajagi yo'lida yuragi yongan, bir lahza bo'lsa-da, "do'ppini boshdan olib", obdon o'yash uchun harakat qilayotgan birorta tengdoshimizni befarq qoldirmaydi – ertamizni o'yashga, yurt taqdiri yo'lida biror xayrli ish qilishga undaydi. Bu

<sup>76</sup> Abdurashidxonov M. Bizni jaholat – jahli murakkab. "Taraqqiy" gazetasi, 14-iyun, 1906-yil. Manba: Istiqlol qahramonlari: Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar., Toshkent, "Ma'naviyat", 2003., 142-bet.

<sup>77</sup> Abdurashidxonov M. "Nashri Maorif uyushmasining ahamiyati". ("Turkiston" gazetasi, 1923-yil, 4-mart.) Manba: Istiqlol qahramonlari: Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar., Toshkent, "Ma'naviyat", 2003., 175-bet.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

donishmand insonning biz, yoshlarga atab yozgan quyidagi she'riy misralarida ham, vatan ravnaqi uchun da'vat etuvchi yoniq qalb xitoblari yangrayotgandek:

Jannat kabi go'zal yurting yig'lab, sendan ish kutadir, Senda ko'rgach ishsizlikni, hasrat chekib, qon yutadir.

Tur o'rningdan, och ko'zingni, Ayt yovingga so'ng so'zingni.

Yoving kimdir, bilasanmi? Nodonlikdir, yalqovlikdir, Yovga qarshi kurashmaslik — qo'rqoqlikdir, anqovqlikdir. Ish qilichin, tur, qo'lga ol!

Yovga qarshi chindan qo'zg'ol!<sup>78</sup>

Darhaqiqat, ushbu satrlar muallifi bo'lmish Munavvar qori Abdurashidxonov, butun ibratli hayotiy faoliyati o'laroq, o'zbek xalqining mashaqqatli davri – XX asrda yashagan istiqlol fidoyilari – Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpion, Abdurauf Fitrat singari buyuk siymolarning biri edi. Sovetlarning mudhish boshqaruvi siyosati davrida yashagan mazkur fidoyi ajdodlarimiz go'zal Turkiston kelajagini hur va ozod ko'rishni istadilar va shu yo'lda buyuk maslak va e'tiqodlaridan yuz o'girmadilar. Ravshanki, o'zbek diyorimizning moddy va madaniy boyliklarini talon-taroj etishni o'z oldiga maqsad qilib olgan chorizm va keyinroq tarix sahnasidan o'rin olgan sho'rolar boshqaruvi millat fidoyilari – elimizning peshqadam vakillarini uzlusiz ravishda yo'qotishga, yurt istiqboli uchun yagona yo'l – istiqlol uchun harakatlarni bo'g'ib-yanchib tashlashga muttasil sa'y-harakatlar qilib keldi. Ularning nomini "xalq dushmani", "ayg'oqchi" kabi turli bo'htonlar, tuhmatlar bilan qoralab keldilar. Natijada, bizning tengdoshlar, uzoq yillar mobaynida jadid bobolarimiz haqidagi chin haqiqatlarni yetarli darajada anglay olmadik.

Yuqorida jadid bobolarimiz safining taniqli vakillaridan biri – Munavvar qori Abdurashidxonov haqidagi mulohazalarimiz qalbimizda kechayotgan e'tirof va iftixon, ayni damda, hech o'rnini to'ldirib bo'lmas nadomatlarimizning hosilasi hamdir. Zero, Munavvar qori Abdurashidxonovni sho'ro siyosiy tizimi avji kamolot faslida – ellik uch yoshida Moskvada otib tashlabgina qolmay, qariyb yetmish yillik hukmronlik davrida ham uning pok nomiga tuhmat va bo'hton toshlarini yog'dirib keldi. Faqat mustabid qizil imperiyaning yemirilishi natijasidagina bizning otalarimiz va onalarimiz Munavvar qori Abdurashidxonov hamda boshqa jadid namoyandalari haqidagi haqiqatlarni qadam-baqadam anglay boshladilar. Biz ham mana shu qayta ko'z ochgan ma'naviy buloqdan bugun bahramand ekanimizdan sarafrozmiz. Jadid allomalarimizning sharafli hamda ibratli hayoti, bizlarga deyarli vasiyatnomadek qadrli bo'lgan buyuk yozmishlarini o'rgangan taniqli olimlarimiz – Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Shuhrat Rizayev va boshqa fidoyi yurtdoshlarimiz oldida ma'naviy qarzdormiz, albatta<sup>79</sup>. Bu qarzlarning badali esa yagona – ularning millatimiz taraqqiyoti uchun mayoq hisoblangan adabiy va ilmiy meroslarini chuqurroq o'rganish va anglamoqdir. Binobarin, jadid bobolarimiz jasorati – biz uchun chinakam insoniy hayotni anglash universiteti hamdir. Bu muhtasham meros biz, yoshlarga qaratilgan chorlov — erk va hurriyat

<sup>78</sup> Abdurashidxonov M. "Yalqovlik – yovimizdir. Istiqlol qahramonlari: Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar., Toshkent, "Ma'naviyat", 2003., 63-bet.

<sup>79</sup> Qosimov B. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylik. –T., Ma'naviyat, 2002.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qo'shig'idirki, u buyuk bobolar tilaklarining gulidir. Bu najotni ko'rsatuvchi gul, o'z vaqtida meva berolmadi, albatta. Ammo bu benazir meros "Vatanni sevmoq — iymondandir" deb aytilgan muborak hadis yanglig', biz, o'rganuvchilarni Arshi a'loga chorlovchi teranlikdir. Bu teranlik o'sha davrda bamisol qafasdagagi asira qush edi, bugun qanot qoqib uchmoqqa intilayotganiga shubham yo'q. Ushbu qimmatli meros millat hurriyatining betimsol qo'shig'i, uni biz chin dildan tinglashimiz va dillarga jo qilishimiz shart.

So'zimiz avvalida fojia va baxt haqida fikrlarimizni bayon etgan edik. Ushbu inshoni yozish davomida ham deyarli achchiq haqiqat – millatimiz o'tmishidagi mudhish fojiaviy davr haqida so'zladik. Milliy tiynatimiz – o'zligimizga chang solingan davrdagi otashin siymolar haqida yozar ekanmiz, ular orasidagi unutilmas fidoyi inson – elimizning asil farzandlaridan biri – Munavvar qori Abdurashidxonov haqida o'zim anglagan haqiqatni yuragimda og'ir dard va iztirob bilan bayon etishga harakat qildim. Yozmishlarimda fojialar bisyor, ammo, nachora, tarix – haqiqatgo'y ustoz. Uning achchiq saboqlarini o'rganmoq esa, eng zaruriy ma'naviy ehtiyojdir. Qolaversa, yurtboshimizning quyidagi so'zlari ham meni mana shu buyuk qadriyatni anglashga chorladi: "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur".<sup>80</sup>

Dunyoda yo'qolishi mumkin bo'lgan barcha moddiy narsalarning o'rni to'lishi mumkin, ammo milliy tiynatimiz bo'lgan odamgarchilik, nafsoniyat, oriyat, iymone'tiqod yo'lidagi yo'qotishlar o'rnini to'ldirish juda mushkul. O'z davrida boy berilayotgan milliy ma'naviy qadriyatlar o'rnini hech qanday boylik, zar-zevar, dur-u gavhar bilan qoplab bo'lmasligini teran his etgan jadid bobolarimiz chorlovlari bugun qaytadan yangrab, bizni sog'lom fikrlashga, millat ravnaqi yo'lida yoniq qalb bilan yashamoqqa undamoqda. Bunday chorlovga javoban yuragimizda "Men – jadidlar avlodiman", degan buyuk faxr hissini tuymoq, yurt ravnaqi yo'lida yonmoq har birimizning muqaddas insoniy burchimiz darajasiga ko'tarilmog'i darkor. Zero, o'z millatini, uning ma'naviy shavkatini, salohiyati va qadriyatlarini oyoqosti qilgan, uning dardiga malham bo'la olmaydigan kishi qanday mavjudot bo'lsa bordir, ammo inson emasdir.

Men jadidlar boshlab bergen buyuk yo'lga chiqqan bir yo'lovchi, aniqrog'i, bobolarimiz boshlab bergen millatni yorug'likka olib chiquvchi, ISTIQLOL atalmish buyuk imoratning umidli merosxo'riman. Bu yo'ldagi zahmatlarni rohat deb bilishga tayyorman. Behbudiy bobomiz ta'kidlaganlaridek, "Din va millatga, Vatanga xizmat ilm va aqcha bilandir". Demak, hozirda mening birinchi galdeg'i vazifam – tugal bilim olish, ona tilim bilan bir qatorda, chet tillarni chuqur o'rganish barobarida, yurtimizning

<sup>80</sup> Sh.M.Mirziyoyev.

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

iqtisodiy, ma'naviy hamda madaniy hayotiga munosib hissa qo'shishga harakat qilmoqdir.

Aziz tengdoshim, asrdosh birodarlar! Bobolarimiz boshlab bergan milliy taraqqiyot yo'lida birlashaylik, jannatmakon yurtimiz kelajagi yo'lida mustahkam ilm olib, uni yurt ravnaqiga sarf etaylikki, millat qayg'usida yonib, shu yo'lida qurbon bo'lgan buyuk ajdodlarimiz – jadidlarimizning pokiza ruhlari oldida yuzimiz yorug' bo'lsin. Ilmimiz, moddiy mablag'larimizni yurt taraqqiyotiga sarf qiladigan komil insonlar bo'lish barchamizga nasib etsinki, fidoyi ajdodlarimizga munosib vorislar bo'laylik.

Men — jadidlar avlodiman, Siz-chi?

